

TAKRORAN JINOYAT SODIR ETISH TUSHUNCHALARI VA BELGILARI

Nodirbek Raximov Mutalliyevich

Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti

Davlat va huquq tarixi va nazariyasi

kafedrasi o'qituvchisi

Qosimov Xamidullo Abduqaxxor o'g'li

Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat

asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi

MIG'-AU-21 guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada takroran jinoyat sodir etish tushunchasi, belgilari, mohiyati va takroriy huquqbuzarlikka oid ma'lumotlar bayon qilingan*

Kalit so'zlar: *Takroriy jinoyat, jamiyat, jamoat xavfsizligi, takroran jinoyat sodir etish, xatti-harakatlar, tizimi, qonunlar, jinoyat sodir etishga suiqasd qilish huquqbuzarlik,*

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 32-moddasida takroran jinoyat sodir etish tushunchasi o'z ifodasini topgan bo'lib, unga muvofiq, Jinoyat kodeksi Maxsus qismining aynan bir moddasida, qismida, Kodeksda alohida ko'rsatilgan hollarda esa, turli moddalarida nazarda tutilgan ikki yoki bir necha jinoyatni shaxs turli vaqtlarda sodir etgan, ammo ularning birortasi uchun ham sudlangan bo'lmasa, takroran jinoyat sodir etish deb topiladi. Tamom bo'lgan jinoyat ham, jazoga sazovor bo'lgan jinoyatga tayyorgarlik ko'rish yoki jinoyat sodir etishga suiqasd qilish ham, shuningdek ishtirokchilikda jinoyat sodir etish ham takroran jinoyat sodir etish deb topiladi.

Takroran jinoyat sodir etishning quyidagi belgilari mavjud:

- Jinoyat kodeksi Maxsus qismining aynan bir moddasida, qismida, Kodeksda alohida ko'rsatilgan hollarda esa, turli moddalarida nazarda tutilgan ikki yoki bir necha jinoyatni sodir etgan bo'lishi;
- turli vaqtlarda sodir etgan bo'lishi;
- ularning birortasi uchun ham sudlangan bo'lmasligi;
- umumiy qasd bilan qamrab olinmagan bo'lishi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir"

masalalar to'g'risida"gi qaroriga ko'ra jinoyatlar takroranligi deganda, qonunga ko'ra shaxs tomonidan turli vaqtlarda qasddan sodir etilgan ikki va undan ortiq jinoyat tushunilib, bunda sodir etilgan jinoyat:

1. Jinoyat kodeksi Maxsus qismi aynan bir moddasida nazarda tutilgan bo'lishi, basharti unda bir xil jinoyat tarkiblari uchun javobgarlik belgilangan

bo'lsa.

2. Jinoyat kodeksi Maxsus qismi muayyan moddasi aynan bir qismida nazarda tutilgan bo'lishi, basharti ushbu moddada turli jinoyat tarkiblari uchun javobgarlik belgilangan bo'lsa, (masalan, JK 228, 248, 273-moddalari) shart.

3. Jinoyat qonunida alohida nazarda tutilgan ayrim hollarda, shaxs tomonidan qasddan Jinoyat kodeksi Maxsus qismi turli moddalarida nazarda tutilgan ikki va undan ortiq jinoyat sodir etilishi ham takroran jinoyat deb topiladi 140(masalan, JK 118, 119, 211, 212-moddalari 2-qismlari, 213-moddasi 3-qismi, 276-moddasi 2-qismi).

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to'g'risida"gi qarorida "Agar jinoyat-huquqiy normada takroranlik kvalifikatsiya belgisi sifatida ko'rsatilgan bo'lsa, shaxs tomonidan sodir etilgan bir necha aynan o'xshash yoki takroranlikni tashkil etuvchi boshqa jinoyatlar Jinoyat kodeksining mazkur jinoyatni takroran sodir etganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi tegishli moddasi (moddasining qismi) bilan kvalifikatsiya qilinadi. Bitta qilmishda takroranlik bilan bir qatorda Jinoyat kodeksi mazkur moddasining boshqa qismlarida ko'rsatilgan kvalifikatsiya belgilari mavjudligi aniqlangan hollarda ham qilmish shu tarzda kvalifikatsiya qilinishi kerak (masalan, o'g'rilik sodir etilganda JK 169-moddasining uchinchi qismida ko'rsatilgan takroranlik belgisi va ushbu moddaning to'rtinchi qismida ko'rsatilgan boshqa kvalifikatsiya belgilari aniqlangan bo'lsa, qilmish JK 169-moddasining to'rtinchi qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim). Bunday hollarda shu moddaning boshqa qismlarida ko'rsatilgan jinoyatning kvalifikatsiya belgilari ayb mazmuniga kiritilishi va shaxsni jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risidagi qaror va hukmda ko'rsatilishi shart" deb tushuntirish berilgan.

Takroriy huquqbuzarlik tushunchasi murakkab masala bo'lib, uni turli nuqtai nazardan, jumladan, psixologik, sotsiologik va kriminologik nuqtai nazardan tushunish mumkin. Takroran jinoyat sodir etganlik

uchun ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilishda har bir jinoyat ayblovning alohida bandini tashkil qiladi. Mustaqil tavsif qilinadigan har bir jinoyat qanday harakatlar orqali sodir etilganligi ko'rsatilib, oxirida yagona ayblov ifoda qilinadi. Shaxs davomli yoki uzoqqa cho'zilgan jinoyatni sodir etganlikda ayblanayotganida, mustaqil jinoyat tarkibini beruvchi har bir xatti-harakat jinoiy faoliyatning epizodlari hisoblanib, bitta jinoyatning yuridik tavsifi ko'rsatiladi.

Agarda, shaxs ikki marotaba qasddan aynan bir-xil jinoyatlarni sodir qilib, qonunda belgilangan tartibda, ulardan birortasi uchun jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod etilgan bo'lsa, uning harakatlari takroran jinoyat sodir etish deb topilmaydi.

Shaxs sodir etgan jinoyatlardan biri tugallangan boshqasi tugallanmagan (jinoyatga tayyorgarlik ko'rish yoki suiqasd qilish) jinoyati bo'lsa ham, shaxsning harakatlari takroran jinoyat sodir etish deb topiladi.

Agarda shaxs sodir etgan jinoyatlaridan bittasini yoki hammasini ishtirokchilikda sodir etgan bo'lsa ham uning harakatlari takroran jinoyat sodir etish deb topiladi.

Takroran jinoyat sodir qilish javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat sifatida baholanib, JK Maxsus qismi tegishli moddasining og'irlashtiruvchi qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi va ushbu moddaning o'sha qismida nazarda tutilgan jazo turlari va miqdorida jazo tayinlanadi.

Agarda, moddada jinoyatni takroran sodir qilganlik uchun javobgarlik

nazarda tutilmagan bo'lsa yoki moddaning o'zi bir qismdan iborat bo'lgan hollarda, sud jazo tayinlashda jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida e'tirof etib, jazo tayinlaydi. Lekin tayinlangan jazoning miqdori JK Maxsus qismida nazarda tutilgan modda sanksiyasining maksimal miqdoridan oshib ketmasligi lozim.

Jinoyat kodeksi Maxsus qismining bitta moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni turli vaqtda sodir etish deganda shuni nazarda tutish kerakki, JK Maxsus qismining bir qancha moddalarida aynan shu jinoyatni takroran sodir etganlik qilmishlarni kvalifikatsiya qilishning zaruriy belgisi sifatida maxsus nazarda tutilmagan (masalan, ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash — 115-modda; besoqolbozlik — 120-modda), bolani almashtirib qo'yish — 124-modda va hokazolar). Bunda jinoyatlarni turli vaqtlarda sodir etib, ularning birortasi uchun shaxs sudlangan bo'lmasligi tushuniladi. Bunday holda

turli vaqtda sodir etilgan aynan bir xil jinoyat uchun ikki marta javobgar qilmasdan muayyan moddaning o'zi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Ammo sud jazo tayinlashda JK 56-moddasi 1-qismining «n» bandiga binoan jazoni og'irlashtiruvchi holat deb topadi va shunga muvofiq jazo tayinlaydi. Bunday holda bir necha jinoyatlar uchun jazo tayinlash qoidalari qo'llanilmaydi. Masalan, aytaylik, oldin bolani almashtirib qo'yish jinoyatini sodir qilgan shaxs tomonidan JK 64-moddasida nazarda tutilgan muddatlar o'tmasdan yana xuddi shunday jinoyatni sodir etsa qilmish takroran qilingan deb JK 124-moddasining o'zi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Shuningdek, Jinoyat kodeksi Maxsus qismining bitta moddasining bitta qismida nazarda tutilgan jinoyatlarni turli vaqtlarda sodir etishni takroran sodir etilgan deb hisoblash shundan iboratki, JK Maxsus qismi moddalarida jinoyatni takroran sodir etish o'sha moddada kvalifikatsiya qilishning zaruriy belgisi sifatida jinoyat tarkibi doirasiga kiritilgan.

Masalan, shaxs oldin JK 169-moddasi ikkinchi qismining «a» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir qilgan, keyinroq esa shu moddaning ikkinchi qismining «b» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir qilgan bo'lsa, bu jinoyatlarning har biri uchun alohida javobgar qilinmasdan, shu moddaning uchinchi qismi «a» bandida takroran qilinganlik uchun javobgarlikni belgilovchi normasi bilan javobgar qilinadi.

Yuqoridagilardan quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin. Takroran jinoyat sodir etish jinoyat kodeksining "Bir qancha jinoyatlar sodir etish" deb nomlanuvchi bobida ko'rsatilgan bo'lib, Jinoyat kodeksi Maxsus qismining aynan bir moddasida, qismida, Kodeksda alohida ko'rsatilgan hollarda esa, turli moddalarida nazarda tutilgan ikki yoki bir necha jinoyatni shaxs turli vaqtlarda sodir etgan, ammo ularning birortasi uchun ham sudlangan bo'lmasa, takroran jinoyat sodir etish deb topiladi. Tamom bo'lgan jinoyat ham, jazoga sazovor bo'lgan jinoyatga tayyorgarlik ko'rish yoki jinoyat sodir etishga suiqasd qilish ham, shuningdek ishtirokchilikda jinoyat sodir etish ham takroran jinoyat sodir etish deb topiladi.

Jinoyatlarning takroriy sodir etilishi psixologik, ijtimoiy omillar ta'sirida bo'ladigan murakkab masala hisoblanadi. Takroriy jinoiy xatti-harakatlar belgilarini tushunish keyingi huquqbuzarliklarning oldini olish uchun faol choralar ko'rishga yordam beradi. Samarali profilaktika, reabilitatsiya va tizimli jinoyatchilikka murossasizlik orqali biz jinoyat sodir etilishi holatlariga barham berishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi.
Muhammadjon Usmonaliev Jinoyat huquqi (umumiy qism). T. 2010
3. X.R. Ochilov, Sh.D. Xaydarov, Z.Z. Shamsidinov "Jinoyat Huquqi"
umumiy qism o'quv qo'llanma Toshkent – 2021
4. S.S. Niyozova, O.S. Toshev "Jinoyat-huquqiy siyosat" umumiy qism
darslik Toshkent-2024
5. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi.
Tom 1. Jinoyat haqida ta'limot: darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta
ishlangan – T: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik
institut 2018